

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 31 (67248)
2019-yil 5-avgust

Tong yulduzi



www.tongyulduzi.az

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

Biz yo'lga tushdik. Vaqt ham ko'nglimiz bilan qo'l ushlagandek. Bir soat oralig'ida ko'zlagan manzirimizga yetdik, hisob! Cho'l allaqachon Gulistonga aylangan shahar! O'tgan yillarda viloyatning bog'cha, maktablarida ko'p bor uchrashuvlar o'tkazganmiz. Har qadami emas, har go'shasi tanish va qadrdon! Bugun... bugun esa tamoman boshqa! Har manzilga eltar yo'lning ovozi eshitiladi. Siz yo'lning ovozini eshitganmisiz?! Tarixning har bir voqeasiga shohidlik uning qatlariga singib ketgan. Ko'tarilayotgan hovurning, ko'pchib yotgan dala yo'llarining tuproqli iforlarida sir-sinoat yashiringan... Unda o'tmish bilan kelajakning tutash chiziqlari birlashgandek...

2-bet

SIRDARYOSAN, VATAN ICHRA VATANIMSAN, OLAM ARO TENGI YO'Q BIR CHAMANIMSAN!



SIRDARYOSAN, VATAN ICHRA VATANIMSAN, OLAM ARO TENGI YO'Q BIR CHAMANIMSAN!

(Davomi.
Boshi 1-betda)

Bugun Sirdaryo viloyatini qayta kashf qildim. Bu so'zlar kuni kecha O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi tomonidan Sirdaryoda tashkil etilgan Media-tur ishtirokchilari tomonidan yangradi. Chindan ham viloyatda muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «Sirdaryo namunasini, sadoqat namunasini tashabbusi» allaqachon boshlab yuborilganiga guvoh bo'ldik.

Bugungi o'zgarishlar hech mulohazasiz mislsiz ahamiyat kasb etgan. Ulkan bunyodkorlik, yaratuvchanlik, ijodkorlik – viloyat ahlining qon-qoniga singib ulgurgan. Ularning har biri haqida so'z aytish uchun vaqtning qo'lidan tutish kifoya. Yo'ldamiz, Sirdaryo tumanidagi «Mega lyuks» va «Farmsanoat», «Peng sheng» O'zbekiston – Xitoy qo'shma korxonalarida sanoatimiz uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ko'rib, ko'zlarimizga ishonmadik. Uning ortida mehnatkash xalqning qudrati namoyon edi. O'zbekiston – Xitoy qo'shma korxonasida 30 nafar kichikintoy uchun yaratilgan sharoit har qancha maqtovg'a munosib. Maktabgacha ta'lim muassasasida mashg'ulotlar o'zbek, rus, xitoy va ingliz tillarida olib boriladi.

Yo'lda davom etamiz. Sayxunobod tumanidagi «Sayxun planet» yoshlar markazi va Mirzaobod tumanidagi besh tashabbus bo'yicha tashkil qilingan «IT»(AYTI) markazlarida bepul tashkil etilgan mashg'ulotlarda yoshlarning ko'pligi va faolligi kishini quvontiradi. Sayxunobod tumanida barpo etilayotgan kitobxonlar xiyoboni haqida tuman hokimi Botirjon Mirzaqulov zavqlanib gapirar ekan, bu xiyobon shundoqina hokimiyat bilan qo'shilib ketishini, kunduzi yashil maydon bo'lsa, kechqurun chiroqlari yonib turadigan

xiyobon bo'lishini, bu yerda kutubxona, kitoblar do'koni qad rostlashini, umuman bu xiyobon o'g'il-qizlarning sevimli maskaniga aylanishiga ishora qildi. Bugungi kunda tumanda 40 ta maktab faoliyat yuritmoqda. Shu kunga qadar tumanda 12 ta maktabgacha ta'lim muassasasi bo'lib, bolajonlarning 25 foizi qamrab olingan edi. Hozirda esa tumanda 21 ta maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyat

manga ham yetib keldik. Bir-biri bilan bo'yashgan qator-qator ko'p qavatli imoratlar bu yurt uchun ko'rk. Ishlar qizg'in. Qo'llari mehnatdan qavargan quruvchilar chehrasida o'z kasbidan mamnunlik – shunday bunyodkorlikka hissa qo'shayotganlaridan iftixor tuyadi. Ularning chehrasida-

larini tadqiq etishi kabi o'ta muhim vazifalar turardi. Ammo u davrda bunga yetarlicha ahamiyat berilmadi. Mustaqillik sharofati bilan Ko'hna Xovos shahri xarobasida o'tkazilayotgan arxeologik tadqiqotlarda uning kamida ikki ming yillik tarixga egaligi viloyat hududidagi eng qadimgi shahar xarobasi qoldig'i ekanligi isbotlandi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya

podshohning betob qizi tabibga keta turib shu yerda biroz dam olibdi. Bu yerning havosi qizning dardiga shifo bo'libdi va tabibga borishiga hojat ham qolmagan ekan. Demak, tuman nomi havosi toza, havas qiladigan yurt degan so'zlardan kelib chiqqan bo'lsa, ajabmas.

Bugun chin ma'noda havas qiladigan tuman bo'layotganiga guvoh bo'ldik. Qizig'i, Xovosda oxirgi ellik yil mobaynida birorta ko'p qavatli uylar qurilmadi. Odamlar o'tgan yillar davomida eski, zax va tor uylarda turmush kechirib kelishayotgandi. Endi esa butkul boshqacha. Hademay, xovosliklar havas qilishadi, chunki ular obod va barcha qulayliklar yaratilgan zamonaviy shaharcha egasiga aylanadilar.

Aylana yo'li Guliston shahrida qad tiklayotgan «Halima Xudoyberdiyeva» nomidagi ijod maktabi qurilishiga olib keldi. Yaqindagina ustozni yo'qotib, ozor topgan ko'nglimiz yorishib ketdi. Bu maktab 150 nafar o'quvchiga mo'ljallangan. Eng zamonaviy usulda jihozlanishi ko'zlangan bu dargohga 33 milliard so'm ajratilgan. Saralangan o'quvchilarni ushbu o'quv yili iste'dodlar maktabiga yetaklab kirishidan juda mamnun bo'ldik. Va o'shanda biz ham qatnashishni niyat qilib qaytdik.

Poytaxt tomon yo'lar ekanmiz, har qadamda Sirdaryoning mardonavor mehnatkashlarini olqishladik. Ayniqsa, iqtidorli, izlanuvchan o'quvchilarning orzularini eshitib, xayolimizdan bir fikr o'tdi: Davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan bu g'amxo'rliklarga javoban sirdaryolik yoshlar kelgusida o'z ona yurtini sharaflyadigan, ota-onasini, ustozlarini, yurtdoshlarini rozi qiladigan o'g'il-qizlar bo'lishi, shubhasiz.

Feruz AADILOVA,
Dilfuza SHOMALIKOVA



yuritmoqda, ya'ni 67 foiz bolajonlar jalb qilingan. Tuman hokimining aytishicha, 2021-yilda 100 foiz maktabgacha yoshdagi bolalar bog'chaga qamrab olinishi ko'zda tutilgan ekan. Ayniqsa, fermer Gavhar opa ta'il davomida o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida besh tashabbusni o'z ichiga olgan «Mumtoz» majmuasini ishga tushirgani, quvonarlisi, o'quvchilar bu yerda har bir yo'nalish bo'yicha bepul saboq olayotganlarini eshitib, juda sevindik. Yaratuvchanlikning yaqqol – betakror ifodasi – «Xovos city» qad rostlayotgan tu-

gi tabassum bizning dilimizga ko'chdi. Yaxshilikning qanoti ham, oyog'i ham bor, deb shuni aytsa kerak-da...

Xovos tumani hokimi Rayimjon Boboyev bizga Xovos tarixi haqida so'zlab berdi. Bundan o'ttiz yillar avval O'zbekiston Respublikasi FA Arxeologiya institutining olimlari Xovos tepaligida arxeologik qazilmalar o'tkazib, unda qadimiy qatlamlar mavjudligini aniqladi. O'sha paytda ekspeditsiya oldida yodgorliklarning qadimiy joyini aniqlash, uning karvon yo'llari, mozor va qo'rg'on-

institut xodimlari bu jarayonda mingdan ortiq turli qadimiy ashyolar topishga erishdi. Eramizdan avvalgi X–XI asrlarga oid tangalar, maxsus simob idishchasi, XII asrga oid Xumo qushi tasviri tushirilgan chiroq dastasi va yana ko'plab naqshli idishlar, xurmacha ko'zalar, xumlar shular jumlasidandir. Demak, bundan 2500 yil ilgari ham, XX asrda ham bu joylarda odamlar yashagan, degan xulosa berish mumkin. Xovostepa 2018-yilda YUNESKO ro'yxatiga kiritildi.

Xovos tuman «Nuroniyy» jamg'armasi raisi Jumaboy ota Suyunovning aytishicha,

BELARUSDA NAVOIY BYUSTI QAD ROSTLADI

**Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig',
Yor o'lung bir-biringizgakim, erur yorlig' ish.**

Butun olam ahliga qarata aytilgan ushbu misralar buyuk bobokalonimiz Hazrat Navoiy qalamiga mansub ekanini endilikda belaruslik tengdoshlaringiz ham yaxshi bilishadi. Gap shundaki, o'tgan haftada Belarus Respublikasi-ning Minsk shahridagi markaziy xiyobonda ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy byusti ochildi. Ikki xalq o'rtasidagi madaniy hamkorlik borasida ulkan voqea bo'lgan ushbu tadbirda bobomizning yuqoridagi satrlari belarus tilida yangradi. E'tiborli jihati shundaki, she'riyat mulki sultonining byusti Belarusda Sharq daholari hurmatiga bunyod etilgan ilk yodgorlikdir. Byust belaruslik haykaltarosh Maksim Makarevich tomonidan ishlangan. Ma'lumot o'rnida aytish kerakki, o'tgan yili Toshkentda atoqli belarus adibi va jamoat arbobi Yakub Kolos xotirasiga yodgorlik o'rnatilgan edi.



O'tgan hafta yurtimizda «Youth techno art – 2019» bolalarning texnik ijodkorligi xalqaro festival tanlovi bo'lib o'tganidan xabaringiz bor.

YOSH TEXNIKLARIMIZ BARCHA YO'NALISHDA G'OLIB

Mazkur festival ko'plab yosh ixtirochilarni kashf etdi. Meva teruvchi mashinadan tortib, turli vazifalarni bajaruvchi robotlarni yasagan yosh texniklar o'zaro raqobatlashib, o'z ixtirolarini namoyish etishdi. Quvonarlisi, o'zbekistonlik bolalar to'rt yo'nalishning uchtasida, yuqori o'rinlarni egallashdi. Jumladan, robototexnika yo'nalishida 1-o'ringa sazovor bo'lgan Navoiy shahridagi 4-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Suhrob Haydarov o'z xursandchiligini biz bilan o'rtoqlashdi:



– Men ikki yildan buyon shahrimizdagi «Barkamol avlod» bolalar texnik ijodkorlik markazidagi robototexnika to'garagiga qatnashaman.

Ustozim Humoyun aka boshchiligida aqlli qafas yasagan edim. Bu qafas mikrokontolyor yordamida uyda bo'limganingizda ham qushlarga suv va don beradi, haroratni me'yorda ushlab turadi. Bundan tashqari, ixtiro qilgan zamonaviy kranim ham ko'pchilikka ma'qul bo'ldi. Men tanlagan yo'nalish matematika fani bilan bog'liq. Shu sabab bu fanni chuqur o'rganishga harakat qilaman. Kelajakda yetuk mutaxassis, dasturchi-ixtirochi bo'lib, yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shish niyatidaman. Tanlovda menga diplom va kompyuter, televizor kabi qimmatbaho sovg'alar topshirishdi. Endi men shaxsiy kompyuterimda yangidan-yangi ixtirolarim maketini yaratishga harakat qilaman.

Festivalda shuningdek, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston, Belarus Respublikasi ixtirochilari yuqori o'rinlarni egallashdi. Yosh texniklar yasagan bir-biridan ajoyib ishlar esa o'quvchilarda katta taassurot qoldirib, qiziqishlarini ortirdi. Demak, kelajakda yurtimizda texnika sohasining yanada rivojlanishiga hissa qo'shadigan yoshlar safi kengayaveradi.

Sayyora QODIROVA

HAYOTNI O'RGATUVCHI MURABBIY

Ilk

bor onam bilan birga kutubxonaga bordim. Kutubxona pesh-toqidagi «Kitob – mening do'stimsan» degan yozuvni ko'rib, «Kitob insonga qanday do'st bo'lishi mumkin, axir, u jonsiz-ku?!» degan savol tug'ildi. O'sha kuni birinchi marta qo'limga uch jildli «O'zbek xalq ertaklari» kitobini oldim.

Ertaklarni o'qishga qiziqib ketganimdan, uning birinchi jildini bir haftadayoq o'qib tugatdim. Qolganlarini ham xuddi shunday ishtiyoq bilan mutolaa qildim. Ana shunda kitob haqiqatdan ham insonning eng yaqin do'sti ekanligini anglab yetdim. Bo'sh vaqtinigizni mutolaa bag'ishlar ekansiz, u qalbingizga shuncha yaqinlashadi, samimiy do'stga, ishonchli sirdoshga aylanadi.

Ana shunda buyuk fransuz adibi V.Gyugoning «Kitoblar jonsiz, ammo sodiq do'stlardir» degan gapi rostligiga amin bo'lasiz.

Har gal kutubxonaga kirganimda, sira shoshmasdan yangi kitoblarni tomosha qilib zavqim keladi. Yangi nashrdan chiqqan asarlardan tandirdan endigina uzilgan nonlarning xushbo'y ifori keladi. Ularning bejirim dizayni ham insonni o'ziga maftun etadi, qo'lingizdan qo'yingiz kelmaydi.

Hayot yo'lida buyuk bobokalonimiz Amir Temurning quyidagi oltinga teng so'zlarini shior qilib olganman: «Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidir, hayotni o'rgatuvchi murabbiydir». Orzularim ro'yobga chiqishi uchun esa tinmay harakat qilishim, juda ko'p kitob o'qishim lozim. Zero, kitob insonga qanot bag'ishlaydi. Shunday ekan, aziz tengdoshlar kitob sizning ham yo'lingizni yorituvchi shamchiroq bo'lsin!

Nasiba ABDULLAYEVA,
Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi 244-umumta'lim maktabi o'quvchisi



KATTA BUVIM SABOG'I

Dam olish kuni oila a'zolarimiz bilan katta buvijonimni ko'rgan boramiz. Ular bilan miriqib suhbatlashamiz. O'zimizni qiziqtiradigan savollar berib, holi-jonlariga qo'ymaymiz. Yaqinda ukam buvijonimdan uzoq umr ko'rishning sababi nima, deb so'rab qoldi. Shunda buvim bolalik xotiralaridan so'zlab berdilar.

– Opa-akalarim turli xil sabablar tufayli erta vafot etishdi, – deya asta so'z boshladilar 90 yoshni qarshilagan buvijonim Tursunoy Ahmedova. – Oilada onam bilan qoldim. Shu tufayli ham ko'p vaqtini mehnatkash onamning oldida o'tkazardim. Daladagi ishlaridan bo'shagach, chorvadorlik bilan shug'ullanardik. Onam bo'sh yurganimni ko'rsalar, xafa bo'lardilar. Ularni ranjitmaslik uchun hamisha harakatda bo'lardik. Hatto taxta ishlab chiqariladigan sexga ham borib, yordamlashardim....

Buvijonim hozirgi tinchlik, to'kin-sochinlik haqida ham ko'p gapirib, bunday yurtning qadriga yetishimizni bot-bot eslatadilar. – Men barcha nevara-yu evaralarimni o'qimishli bo'lib yurtga foyda keltirishlarini xohlayman, – deydilar.

Biz nevara-yu evaralar katta buvim berayotgan saboqlari va hayot darslarini o'rganib, kelajakda yaxshi inson bo'lib yetishishni xohlaymiz. Bir kun buvijonim duosi, albatta, ijobat bo'lgay.

Yaqutxon SODIQJONOVA,
Farg'ona viloyati, Qo'qon shahridagi 22-umumta'lim maktabi o'quvchisi



MUZEYDAGI SAHNA KO'RINISHI

Aziz o'quvchilar! Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan besh tashabbus bo'yicha sizning maktabingizda ham ta'til bo'lishiga qaramasdan bir-biridan ajoyib to'garaklar faoliyat yuritayotgani aniq. Ularda sizning san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga bo'lgan qiziqishingiz ortishi bilan birga, o'z iste'dodingizni namoyish qilish imkoni ham yaratilayotgani quvonarli.



Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 117-umumta'lim maktabidagi to'garaklar va o'quvchi qizlar uchun tashkil etilgan pazandachilik, tikuvchilik kurslari nafaqat shu maktab o'quvchilari, balki Otchopar-1 mahallasi bolalarining hunar o'rganishlariga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, ta'lim maskanida turli qiziqarli tadbirlar o'tkazilmoqda. Jumladan, yaqinda O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Toshkent shahar Yunusobod tumani «Yoshlar qanoti» bilan hamkorlikda «Qatag'on qurbonlari xotirasi» davlat muzeyiga sayohat uyushtirildi. O'zbek ma'rifatparvari Abdulla Avloniy tavalludining 141 yilligi munosabati bilan muzey xodimlari va o'quvchilar ishtirokida «Buyuk siymolar hamisha ardog'imizda» ma'naviy tadbiri ham o'tkazildi. Unda bolalar sahna ko'rinishi orqali Avloniy obrazini gavdalantrishdi, qatag'on qurbonlarining ijod namunalari o'qib berishdi. Birinchi o'zbek romani «O'tkan kunlar»ning qahramonlari Otabek va Kumushning yozishmalarini mahorat bilan yoddan aytishdi.

Uchrashuv ochiq muloqot tarzida juda qiziqarli o'tdi. Ustozlar-u o'quvchilar bu sayohatdan bir olam taassurotlar bilan qaytishdi.

Shahnoza NABIYEVA,

O'z MTDP Yunusobod tumani Kengashi raisining Yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosari

TA'TILDA HAM TA'LIM OLAMIZ

Hamma bolalar mazza qilib dam olayotganda qanaqa ta'lim, deysizmi? Navoiy viloyatidagi 16-DIUM o'quvchilari maktabda tashkil etilgan oromgohda bilimlarini mustahkamlamoqdalar.

4-sinf o'quvchilari Aziza Aktamova, Jamolidin Shermatov, Ma'ruf Alimovlar ustozlari yordamida matematika fanidan «Sonning qismini topish»ga doir masalalarni arifmetik hamda tenglama shaklida yechishni o'zlashtirib oldilar. Sport o'yinlari, ingliz tili va ko'plab to'garaklar faoliyat yuritayotgan ushbu sog'lomlashtirish maydonchasida amaliyotchi psixolog Dilruh O'rinovalar tomonidan turli psixologik o'yinlar bolalarning qiziqishini yanada orttirmoqda.

Maktabga ilk qadam qo'yish taraddudida turgan kichkintoylar uchun tayyorlov guruhi ham mashg'ulotlarni boshlab yuborgan. Bu yerda bo'lajak o'quvchilar mantiqiy savollarga javob



Maktabga ilk qadam qo'yish taraddudida turgan kichkintoylar mashg'ulot paytida.


berib, boshlang'ich matematik amallarni bajarmoqdalar.

– Men bu yil ushbu maktabga birinchi sinfga kelaman. Ustozimizning aytishicha, sinfimizda o'quvchilar ko'p bo'larkan. Bizga o'quv qurollari, kitob, daftarlar berilarkan. Maktabda a'lo baholarga o'qiyman, – deydi Rushana Sunnatqulova. Rushananing tengdoshlari E'zoza Norqulova, Samira Sodiqova, Javohir Yo'ldoshevlar ham matematik amallarni mustaqil bajarishda bir-birlaridan qolishmayapti.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh tashabbus bo'yicha maktabda tashkil etilgan sport to'garagida kuni kecha Shahnoza Jo'raqulova, Mushtariy Nuriddinova, Zuhridin Karimov hamda Muhammad O'ktamovdan iborat ahil jamoa ishtirokida «Qo'l to'pi» bo'yicha musobaqa o'tkazildi.

Bir so'z bilan aytganda, sog'lomlashtirish maydonchasida zerikib o'tirgan o'quvchilari uchratmaysiz.

Siz-chi, aziz bolajonlar, maktabingizda tashkil etilgan sog'lomlashtirish maydonchalarida yoki oromgohlarda nimalar bilan bandsiz? Bizga bu haqda yozib yuboring.



Ozoda TURSUNBOYEVA

Kechagina bizlarga rus tilidan saboq berib yurgan Xurram muallim, hash-pash deguncha sakson uch bahorni qarshiladi. Umr go'yo uchib borayotgandek, sira tutqich bermaydi. Qishlog'imizning birinchi o'qituvchisi bo'lgan Xurram muallimning biz o'quvchilarga qoldirgan yorqin xotiralari hisobsiz edi.

QISHLOG'IMIZNING BIRINCHI O'QITUVCHISI

Mehribon murabbiy biz bolakaylarning boshini silab saboq bergani uchun ham xotiramizda muhrlanib qolgan. Ta'til-da bizning qadrdon go'shamizga aylangan anhorimiz Xurram muallimning hovlisi yonidan oqib o'tardi. Bolalarning quvonchiga sherik bo'lish ilinjida ustoz uyi oldidan oqib o'tadigan anhor bo'yida kattakon ko'l qurgandi. Biz o'quvchilar cho'milishning xumori tutganda, albatta, Xurram muallimning ko'li tomon oshiqardik. Nima bo'lganda ham beg'ubor bolalik gashni qalbdan tinimsiz sog'inch-u armon uyg'otarkan.

Kuni kecha qishloqqa borganimda, asoga suyanib qolgan muallimga ko'zim tushdi. Ustozning o'tlig' nigohiga tikilib, bolalikka qaytgandek bo'ldim. Ustoz boshidan kechirganlarini kuyinib so'zlashga tushdi. U umri behuda o'tmaganidan mamnunligini aytdi.

– Umr bo'yi odamlarga yaxshilik qilish ilinjida yashadim. Betakror bog'lar barpo etdim. Insonlarga nafi tegadigan shogirdlar tarbiyaladim. Dunyoda bundan ortiq baxt bormi? – deya g'ururlandi ustoz. Bu olamda barcha ustozlar ezguliklar urug'ini sochish ilinjida yashaydilar. Bejiz shoir: «Mehr nuri yog'ar doim ko'zingizdan, ustozlar», deya yozmagan. Biz har doim mehridaryo ustozlarimiz oldida qarzdorligimizni his qilib yashaymiz:

– Umr bo'yi odamlarga yaxshilik qilish ilinjida yashadim. Betakror bog'lar barpo etdim. Insonlarga nafi tegadigan shogirdlar tarbiyaladim. Dunyoda bundan ortiq baxt bormi? – deya g'ururlandi ustoz. Bu olamda barcha ustozlar ezguliklar urug'ini sochish ilinjida yashaydilar. Bejiz shoir: «Mehr nuri yog'ar doim ko'zingizdan, ustozlar», deya yozmagan. Biz har doim mehridaryo ustozlarimiz oldida qarzdorligimizni his qilib yashaymiz:

Siz xurramsiz, Xurram muallim, Shogirdlarning kamolin ko'rib. Kimlar sizdan olmasi bilim, Darsingizga parvona bo'lib.

Siz daryosiz, Xurram muallim, Chanqog'ini bosadi dillar. Yo'lingizga nur sochib balkim, Oy ham sizga mahliyo bo'lar.

Siz oftobsiz, Xurram muallim, Ezgulikning ostonasida. Hanuzgacha bilmaysiz tinim, Joy olgansiz dil xonasida.



**Bolalikdan bolalarga quloq soldim,
Bugun sakson yetti yoshga yetib oldim.
«Qasoskorning oltin boshi» sandig'ida,
Olislarga «Sariq devni minib» bordim.**

AXTAMQULI

YOZUVCHINING BOG'IDA MEHMON BO'LISHDI



Hozir Sizga bir uchrashuv haqida so'zlab bersam, bu bolalarga havas qilishingiz tayin. Aslida, ular hali maktabga ham chiqishmagan bo'lib, poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 11-maktabgacha ta'lim muassasasining tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari hisoblanishadi. Xullas, bolajonlar oynayi jahon orqali Hoshimjonning sehrli qalpoqchasiga mahliyo bo'lib qolishgan ekan. Asar muallifi Xudoyberdi To'xtaboyev bilan uchrashishni orzu qilishibdi. Muassasa mudirasi Shohida Dadaboyeva va tarbiyachi Muhabbat Dehqonova bolalarning orzularini amalga oshirishga bel bog'lashibdi. Shunday qilib, kichkintoylar sevimli yozuvchining xonadoni yaqinidagi katta bog'da mehmon bo'lishdi. Bolalarning tashrifidan quvongan Xudoyberdi bobo esa ularni bellashuvga chorladi. Ular topishmoq-u maqollar aytish bo'yicha musobaqalashibdi. Shu orada

sevimli yozuvchimiz bolajonlarga ajoyib topshiriq berdi:

– Qani endi bolajonlar, shu yerda ko'rganlaringizga qarab topishmoq to'qing-chi?!

Kichkintoylar o'ylab turganda bobo darrov misol keltirdi:

– Qora-yashil chizig'i, mazalidir qizig'i.

Bu topishmoqning javobi dasturxonida turgan tarvuz edi. Hozirjavob bolalar o'yin shartini tushunib olishgach, o'zlari ham bir nechta topishmoqlarni to'qib tashlashdi. Qizlar esa «Nahori nashta» qo'shig'iga raqsga tushib berishdi. Shundan so'ng mezbob bobo bolajonlarni tarvuz bilan mehmon qilib ularni uzoq duo qildi, kelajakda a'lochi o'quvchi, yaxshi farzand bo'lishni tiladi. Bolajonlar esa ajoyib o'tgan ushbu kun haqida ota-onalari-yu, bizga so'zlab berishdi.

QIZLARXON

Lesson 31

PRACTICE IDIOMS

Idioms	Meaning
Social butterfly	A social butterfly is someone who likes to be around people, who likes the company of others.
Dog days of summer	These days are the hottest days of the summer. These are the days that are so hot, you do not have the energy to do anything.
Thrown (one) in at the deep	It means to make someone do something, especially a job, without preparing them for it.
Full of hot air	This idiom is used when someone says things that sounds like nonsense.

1. It is impossible to get any work done during these _____!

2. Why are so many writers _____? It is hard to believe anything they write.


3. Rustam is such a _____. He is out every night of the week and knows everyone in this village.

4. He had never worked in sales before, but his boss _____, and he learned quickly.



Muhammadshrif FAYZULLAYEV

SUMMER



There are four seasons in a year. They are: Winter, Spring, Summer and Autumn. Summer months are: June, July, August. Children have vacation in summer. Summer holidays are fun. The most kids like summer vacation, because the like cycling and swimming. Children also love to go to the summer camps. The summer camps are very interesting and exciting for kids. Children can play different kinds of games, can learn some languages and enrich their vocabulary. So summer is good time for children.

Zilola SIROJIDDINOVA,

The teacher of school № 41, in Angren city, Tashkent region

FRIENDSHIP QUOTES

Friendship is born at that moment when one person says to another, «What! You too? I thought I was the only one».

C.S. LEWIS

«Don't make friends who are comfortable to be with. Make friends who will force you to lever yourself up».

Thomas J. WATSON

«You can make more friends in two months by becoming interested in other people than you can in two years by trying to get other people interested in you».

Dale CARNEGIE

«Ultimately the bond of all companionship, whether in marriage or in friendship, is conversation».

Oscar WILDE



The Tender friendships one gives up, on parting, leave their bite on the heart, but also a curious feeling of a treasure somewhere buried.

Antoine de Saint-Exupery

Do I not destroy my enemies when I make them my friends?

Abraham LINCOLN

SELFISH FRIENDSHIP

Reading time

Once a cat was caught in a hunter's net. A mouse used to live in a nearby hole. The mouse seeing the cat in the net started playing around the cat.

Soon a mongoose came there. He wanted to kill the mouse. As he lifted his head, he saw an owl sitting on a tree trying to catch him. The mongoose went very near the cat's net to save himself. The mouse thought «When the hunter takes away the cat, the mongoose will not spare me and the owl is there to enjoy both of us».

The Mouse went to the cat and said, «I can cut the net if you promise to save my life from the mongoose and the owl». The cat agreed. The mouse started cutting the net slowly and freed the cat only when the hunter was just near the cat. The cat took to heels and so ran the mongoose too. The owl was very much disappointed to see even the mouse running away to safety.

A few days later, the cat being hungry, went to the hole of the mouse and requested him to come out for a game. The mouse replied,

«I sought friendship and saved you to save my life». Now you can go home.



ARMON

Boburjon akam tilidan

Buvijonim ismim qo'yan Boburjon deb,
Bahodirim, deya suyub erkalagan.
Lek yurishdan, gapirishdan mosuvoman,
Hayot meni bu borada yakkalagan.

Gar uyimga mehmon kelsa sevinaman,
Oling, deya oldimdagin ilinaman.
Goh achinib, goho hayron qarashadi,
Ko'p sinchiklab boqishmasin, ezilaman.

Bo'yларimga kostyum-shimlar yarashmasmi?
Ko'chalarga chiqsam qizlar qarashmasmi?
Qora qosh-u ko'zlarimga maftun bo'lib,
Kim ekan bu yigitcha, deb so'rashmasmi?

Barmoqlarim agar menga bo'ysunganda,
Dadam kabi rassom bo'lsam yarashardi.
Jonsiz, nozik bilaklarim kuchga to'lib,
Maydonlarda mardlaracha or talashardi.

Yo Rab, bugun o'tiribman yigit bo'lib,
Turgim kelar, chopgim kelar, ko'nglim to'lib.
Onajonim, ukalarim qiynamasdan,
Dilimdagin aytgim kelar Oyni ko'rib.

Onajonim qo'llaringiz tolqandir-a?
Belingizning quvvati kam qolqandir-a?
Ko'tarasiz bo'yingizga teng yigitni,
Mening dardim kuchingizni olqandir-a?

Otajonim qirqa chiqmay sochlari qor,
Mening uchun dardli ko'zi mungli, ma'yus.
Sog'lom bo'lsam, yonlarida qanot bo'lsam,
Bo'lmasmidi ming bor afsus, ming bor afsus.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Ko'chaga har ikkita uyning oldiga uch xil jo'mrak o'rnatilgan: ichimlik uchun havorang, sug'orish ishlariga – yashil, sepishga – sariq jo'mrakdan foydalaniladi. Bu oltin qoida. Uni hech kim buzmaydi. Ko'cha keng. Ko'chalarga teflonli, ftorli hamda elastomerli aralashma va boshqa qo'shimchalardan tayyorlangan plitkalar shaxmat tartibida joylashtirilgan. Ular maxsus ranglar bilan bo'yalgan. Ko'chaning ma'lum joyiga pult yordamida zarur paytda ochiladigan shirshirak (zamo) joylashtirilgan. Uylar oldiga temir darvozalar o'rnatilgan. Darvozalar bir xil: 4x6 hajmda. Devor o'rnatilmagan. Uy bilan darvoza oldida maxsus joy qoldirilgan. Bu yerga faqat anjir hamda anor ekilgan. Onda-sonda xurmo va past bo'yli yong'oqni ko'rishingiz mumkin. Darvozaga o'rnatilgan diktofonga ismingizni aytasiz. Uy egasi xohlasa, eshik ochiladi. Biz ham shunday qildik. Darvoza ochildi. Uydan Matmusa tog'am, Gulposhsha kelinoyim va Tamtumbov chiqib bizni kutib olishdi. Matrayim chelakdagi gilosni Gulposhsha kelinoyimga uzatar ekan dedi:

– Buzdan kompot qilib berarkansiz, Diyorbek aytuvdi.

Kelinoyim menga qaradi.

– Buvim aytgan gaplarini menga to'nkama. Bu gapni boshqacharoq qilib o'zim ham aytardim. Kelinoyi, xafa bo'lmang, o'zi yaxshi bola-yu, lekin qovunchilik odati bor?



Zilola
SHOMURODOVA,
Toshkent
viloyati, Zangiota
tumanidagi
35-umumta'lim
maktabi
o'quvchisi

XONAMIZNING OFTOBI

Singiljonim a'lochi,
Donolarning donosi.
U misoli farishta,
Hamma ishi sarishta.

Xonamizning oftobi,
U otamning kitobi.
Jozibaxondir ismi,
Doim a'lo javobi.

O'zi juda ham dono,
Qalbimizga erur jo.
Yaxshi farzand bo'lgin deb,
Onamiz qilar duo.

Sevinch JUMAQULOVA,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo
tumanidagi 36-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

ICHBURUG'

Ogoh bo'lgin, sen faqat,
Yema aynigan ovqat.
Meva-cheva deysanmi,
Yuvmay turib yeysanmi?

Ketib qolmasin iching,
O'ylamagin bu – piching.
Ikki qilma so'zimni,
Ehtiyot qil o'zingni!

Bu it yong'indan mushuk bolasini qutqarib qoldi.



YONG'IN CHIQA...

Yong'inlar ham ofatning biri,
Senga aytay, saqlanish sirin.
Olov kam yonganda sen shitob,
Ustiga yo chodir, match yop.

Gar yong'inni o'chirolmasang,
Quyidagi so'zga quloq il.
Fursatni boy bermay lahza ham,
«101»ga – tez qo'ng'iroq qil.




Bahrom AKBAROV, bolalar yozuvchisi

TOG'AMNING UYI

Tog'am bilan boshlashib uyga kirdik. Hovlining chap tomonida bambuk daraxtining tagidagi naqshinkor yog'och karavot ustida o'tiribmiz. Tog'am yonboshlariga uchburchak shaklidagi

MEN, MATRAYIM VA TAMTUMBOV

(Hikoya)



yostiqni tortdilar. Gulposhsha kelinoyim xontaxta ustiga yozilgan dasturxonni ochdilar. – Iya, bu ochildasturxon ekan-ku, – dedi Matrayim ko'zlari

chaqchayib.

Tog'am kuldilar. Matrayim haq edi. Xontaxta ustida banan, apelsin, mandarin, kivi, hatto xandalak ham bor edi. Quruq mevalarni aytmamas ham bo'ladi. Chunki ularning ko'pini bilmayman-da.

Gulposhsha kelinoyim choy uzatdilar. Bir piyola choy ustida suhbat boshlandi.

– Obbo jiyani-ey, kelganing yaxshi bo'libdi. Ertaga ertalab Archalisoyga boramiz.

– Nima gap tog'a? Tinchlikmi o'zi? Buvim timsohlar kelibdi, dedilar.

– Ha, kelibdi, kelibdi, – dedi Gulposhsha kelinoyim shoshilib. – Xuddi ko'zimiz uchib turganday.

Kelinoyimning gapi tog'amga yoqmadimi...

– Ularni qoziq tishlari bor ekan, – dedi Tamtumbov IV, suhbatga qo'shilib.

– Ularda qoziq tishlar bo'lmaydi, – dedi Matrayim bilag'onlik qilib. – Temir tishlar bo'ladi. O'sha to'rtta temir tishi bilan tishlaydi. Shunisi chatoq.

Gulposhsha kelinoyim bu gapdan keyin boshlarini chayqab qo'yidilar-da:

– Shu tishlarini qoqib olishning iloji yo'qmikan? – dedilar tog'amga yuzlanib.

– Men nima deymen-u, qo'bizim nima deydi? – dedi tog'am qizishib. – Jiyanni bekorga chaqirdimmi? Chumchuq otar roqatkasi borligini bilasanmi o'zi?..

(Davomi bor)

BIZGA OROMGOH YOQDI

Maktabimizda «Ma'rifat g'unchalari» sog'lomlashtirish oromgohiga har bir mavsumda 100 nafardan ziyod bola jalb qilindi.



Sport, qo'l mehnati, san'at, kompyuter yo'nalishida qiziqarli mashg'ulotlar olib borildi. Ertalabki badantariya mashqlaridan so'ng Dilbar Ino'g'omova, Shahnoza Karimova, Zuhra Rixsiyeva, Muhayyo Ziyayeva, Bamo Zokirova kabi ustozlar bolalar bilan mazmunli va maroqli mashg'ulotlar olib borishdi. «She'riyat kechasi» hamda drama

va ingliz tili to'garagi a'zolari tayyorlagan turli tadbirlar, sahna ko'rinishlari juda qiziqarli bo'ldi.

— Menga oromgoh juda yoqdi, — deydi 3-«M» sinf o'quvchisi Safina Xalilova. — Erta tongdan tarbiyachi ustozlarim kutib turgan oromgohga shoshilaman, u yerda o'zim yoqtirgan raqs, kompyuter to'garaklariga qatnashdim. Kutubxonachi Nasiba Nurmuhammedova yordamida qiziqarli kitoblar olib, mutolaa qildim.



Yozgi oromgohimizga Kamoliddin Behzod nomli milliy rassomlik va dizayn institutining haykaltaroshlik kafedra mudiri O'.Saidov, dotsent



U. Kuryorov, katta o'qituvchilar U. Usmonov, O. Amirqulov hamda 2-kurs talabasi A. Asqarov taklif qilindi. Bolajonlar mehmonlar bilan birgalikda loydan turli xil buyumlar yasashdi.

— Ustoz haykaltaroshlar bilan turli buyumlar yasab juda zavqlandim, — dedi 4-«M» sinf o'quvchisi Tohir Rustamov. — Ayniqsa, men yasagan otni ko'rgan tengdoshlarim zo'r yasabsan, xuddi o'zginasi, deyishdi. Zero, hayvonlarni asrab-avaylash, mehrlilik bo'lish barchamizning burchimiz.

Ta'til davomida «Kuzatuv kengashi» a'zolari o'quvchilarni muzqaymoq bilan siylashdi.

Dilfuza RASULOVA,
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi
324-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

PESHQADAMLAR DOIM OLDINDA

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilaridan iborat O'zbekiston terma jamoasi navbatdagi xalqaro musobaqada munosib ishtirok etmoqda.

Rossiyaning Sochi shahrida Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilaridan iborat jamoalar o'rtasida xalqaro superkubok musobaqasida Jamshid Asadov boshchiligidagi O'zbekiston terma jamoasi finalga yo'l oldi.

Yosh futbolchilarimiz superkubokda «Galaktika» jamoasiga 0:1 hisobida mag'lub bo'lgan bo'lsa-da, «Atletik»ni 3:0, «Inter»ni 1:0, «Sumada»ni 4:1 hisobida yengib, finalda rossiyalik tengqurlariga qarshi maydonga chiqadigan bo'ldi.

Qashqadaryo viloyatining bir qator hududlarida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusning ikkinchi yo'nalishida sport musobaqalari uyushtirildi. Sportning bir nechta turlari bo'yicha o'tkazilgan mazkur musobaqalarda 700 nafarga yaqin yoshlar o'zaro bellashdi.

QASHQADARYOLIK TASHABBUSKOR YOSHLAR



Qarshi shahridagi mahalla yoshlari o'rtasida yengil atletika bahslari Alisher Navoiy nomidagi istirohat bog'ida bo'lib o'tdi. Bolalar va o'smirlar sport maktabining futbol maydonida 9 – 14 yoshgacha bo'lgan 120 nafarga yaqin o'smirlar o'rtasida «Futbolimiz kelajagi» shiori ostida futbol musobaqasi tashkillashtirildi. Bellashuv natijasiga ko'ra, Qarshi tumanining «Qoratepa» MFY jamoasi 1-o'rinni egallagan bo'lsa, «Lagandi» va «Padaron» MFY jamoalari 2- hamda 3- o'ringa loyiq topildi.

Shahrisabzdagi «Beruniy» yozgi sog'lomlashtirish oromgohida «Yoz – o'tmoqda soz» shiori ostida stol tennisi musobaqasida esa 100 nafarga yaqin dam oluvchilar ishtirok etdi. Ushbu musobaqa keskin bahslarga boy bo'ldi.

ZAFAR YOR BO'LSIN!

Jismoniy tarbiya va sport vazirligi matbuot xizmati xabar berishicha, joriy yilning 8-11-avgust kunlari Olmaliq shahrida belbog'li kurash bo'yicha 2002-2004-yillarda tug'ilgan o'smirlar va qizlar o'rtasida jahon chempionati bo'lib o'tadi.



Olmaliq kon-metallurgiya kombinati AJ sport majmuasi mezbonlik qiladigan ushbu musobaqada sportchilar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun kuch sinashadi. Dunyoning qirqaqa yaqin davlatidan qariyb 200 nafar kurashchi o'smir bolalar va qizlar turli vazn toifasida g'oliblik uchun bahslashadi.

O'z vazn toifalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan polvonlar tashkilotchilar tomonidan 1 500 AQSH dollari, 2- va 3-o'rin sohiblari uchun 1 000 va 500 AQSH dollari miqdoridagi pul mukofotlari bilan taqdirlanishi ko'zda tutilgan.

QIZIQARLI MA'LUMOTLAR



1. Muzqaymoqning ixtirochilari – xitoyliklar.
2. Dunyoda muzqaymoqning 200 dan ziyod turi bor.
3. Muzqaymoq tayyoqchasi 1905-yilda Frank Epperson tomonidan ixtiro qilingan.
4. Amerikaliklar eng ko'p muzqaymoq iste'mol qiluvchilar hisoblanadi.
5. Kanadada muzqaymoq ko'proq yozdan ko'ra qishda sotiladi.



* * *



1. Tarvuz asosan suvdan iborat.
2. Olimlarning ta'kidlashicha, tarvuz ovqat hazm qilish jarayonini yaxshilaydi, buyrak va jigarni tozalaydi, yurak qon-tomir tizimiga ijobiy ta'sir qiladi.
3. Tarvuz tanlayotganingizda o'rta kattalikdgisiga e'tibor bering, og'irligi 5–7 kilogrammdan oshmasligi kerak. Shakli yassiroq tarvuzlar eng shirin hisoblanadi.

Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi
26-umumta'lim maktabi o'quvchisi Muhtaram HASANOVA tayyorladi

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

Ishlab chiqarish fani								1	Ong, aql	Ishqoriy metall	
Me'yoriy hujjat izohi	Tur-mush, yashash	Afrika-dagi davlat	Meva	Komp-yuter ekrani	Yordam mab-lag'i			Maso-fa		Go'zal-lik	2
				G'afur G'ulom she'ri							
		Ko'rsa-tish olmoshi	3						Davlat tuzi-Kishi shakli	Chevar asbobi	
				Maro-kash poytaxti	Termiziy (muhad-dis)				4		
			Tojikis-tondagi sana-toriy					Tikish usuli		Mu-chal yili	
Ta'na, tanbeh								G'o'za guli			Bosh-lang'ich, erta
Tosh-kentdagi tuman	Ayollar ismi			Nav-bat	5						
				Foyda, kirim	Xartum-li hayvon boquv-chi						Avto marka
6	Buyuk ishlarga qodir	Eshik zihi		Ijod mah-suli						Xazi-na	Poytax-ti-Bamako
					Harbiy qism			Yo-g'och oqizish			
Kuchli urilish		...bob, kam...	Ja-rohat holati	7				Meros-xo'r Sport qayig'i		Pul bir-ligi	
				8	Rus adibi	... Zun-nunova (shoira)					Tomosha mos-lamasi
Gazla-ma iplari	Nasl, zot		Vaqt o'lcho-vi	Boqila-digan hasharot							9

KALIT SO'Z

6 3 7 2 5 5 2 8 9 4 2 1

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

NARGIZA tayyorladi



«QORA SHAHZODA» TORTI

Kechki ovqatdan so'ng biroz shirinlik tanovul qilgisingiz keladi, shunday emasmi? Bugun sizlarga xushxo'r va hamma sevib iste'mol qiladigan «Qora shahzoda» tortini pishirilishini o'rgatamiz.

Xamiri uchun bizga:

2 stakan un, 2 stakan shakar, 1 choyqoshiq iste'mol sodasi, 2 chimdim tuz, 4 oshqoshiq kakao, 2 stakan smetana, 2 dona tuxum, 80 gramm istalgan margarin.

Kremi uchun:

3 oshqoshiq shakar, 3 oshqoshiq kakao, 2 oshqoshiq smetana, 50–60 gramm saryog', 40 gramm qora shokolad (bezak uchun).

Ishni avvalida chuqur idishga un, iste'mol sodasi, tuz, kakao kukuni elakdan o'tkazib, aralashtiriladi. Boshqa bir idishga tuxum va shakar oppoq tusga kirguncha ko'pirtiladi. So'ngra ikkisi bir-biriga qo'shiladi.

Maxsus pishiriq qog'ozi solingan gaz patnisiga bir xilda yoyilib, 180 haroratda qizdirilgan gaz pechida 30–40 daqiqada davomida pishiriladi.



Biskvit pishguncha krem tayyorlanadi:

Idishga kakao, shakar va smetana solinib, bir xil tusga kirguncha aralashtiriladi. So'ng past olovga qaynashga qo'yiladi. Qaynashni boshlaganda, saryog' solinib, 5 daqiqa tinmay aralashtirib turiladi.

Biskvit pishgach, uni 3 qismga bo'linadi. Bo'laklarga kremni surtib, qolgan tortning yon qismlariga suriladi. So'ngra tortni 1–2 soatga muzlatgichga qo'yiladi.

Muzlatgichdan olgach, ustiga qora shokoladni qirg'ichdan chiqarib, bezak beriladi. Mana, tortimiz ham tayyor bo'ldi. Endi uni lipopchalarga solib, oila a'zolaringizga tortiq qilishingiz mumkin.

Yoqimli ishtaha!

8

5-avgust 2019

Tong yulduzi

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV

Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-xonasida chop etiladi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzilimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,
30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi929@umail.uz
telegram: t.me/tongyulduz
Adadi – 5611
Buyurtma – V 3681

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti – 18:00
Topshirildi – 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08